

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI KREATIV FIKRLASHGA
O'RGATISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

Muhamedova Xilola Maratovna

Farg`ona viloyati Marg`ilon shahar

12-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek bolalarni mustaqil va kreativ fikrlashga o‘rgatishning psixologik mexanizmlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, fenomen, o‘yin, o‘yinterapiya, ijodkorlik, yaratuvchanlik, progressivo‘zgarishlar.

Hozirgi vaqtida inson doimiy o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitda yashamoqda. Bunday tezkor o‘zgaruvchan olamda yashashi uchun, u uzluksiz rivojlanishi hamda moslashuvi uchun yangi sharoitlarga moslashishga yordam beradigan shaxsiy kompetentsiyaga ega bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda shunday muhim kompetentsiyalardan biri - kreativ tafakkur,yuqori ijodiy faoliyat va kreativ xulq-atvordir. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikka qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so‘zi inglizcha «create» - yaratuvchanlik, ijodkorlikso‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an’anaviy yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorligini xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan qobiliyatdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish muammosi juda ko‘p tadqiqotchilarini qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. P.F.Legaft (1837-1909)ning fikricha, inson hayotining ayni shu bosqichida uning kelgusida qanday xarakter-xislatlar sohibi bo‘lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga chiqadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatları orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o‘yinlar yordamida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim muassasaları amaliyotida tarbiyachilarining tarbiyalanuvchilarining ijodiy rivojlanishiga bo‘lgan e’tiborini kuchayganlik tendentsiyasi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda metodistlar va psixologlarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradigan bola bilan shaxsga yo’naltirilgan - o’zaro ta’sir o’tkazish usullarini takomillashtirish kerak degan xulosa qilishimiz mumkin. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: Elektron xizmatlar, virtual reallik,

to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o‘laroq yaratilgan. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create”dan olingan bo‘lib, yaratish ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o‘zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg‘amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi. Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko‘rinishlari bor. Masalan, qutbli tafakkur - hamma narsani ikki shaklda - yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda ko‘rishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning o‘zi mavjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi. Har bir holat va jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari bor. Bir tomonlama yondashuv, asoslanmagan xulosalar ham stereotiplar asosida fikrlashning ko‘rinishlaridir.

- Tomas Edison “Kreativlik - g‘ayriixtiyoriy jarayon”, deydi. Lekin har kuni ko‘plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g‘ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi “sehrli tayoqcha” yo‘q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o‘ylashiga ko‘maklashadigan ko‘plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim.

- Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O‘zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so‘rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o‘rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo‘ldi. Endi yangi g‘oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

- Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko‘ngilochar sohada o‘z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U

dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi - xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya’ni, xayolparast rolida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning “Tokkata, fuga re minar” musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg‘unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi - barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko‘rib chiqadi. Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi.

Kreativlikka ega bo‘lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilgab oladilar va tez o’zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar. Maktabgacha yoshdan kreativ fikrlay oladigan, ijodiy tafakkuri rivojlangan bolalar, kejajakda buyuk ixtiolar va kashviyotlar qiladilar, albatta o‘z vatanlari ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘sadilar.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.: (4-5)
3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi (2010).
4. M. Atayev (2017). Islomda bolalar huquqlari.
5. Гармонично поколение-условие стабильного развития Республики Узбекистан. Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н Кари-Ниязи. (2019). Сборник научно-методических статей. Ташкент. З том. С (325-327)
6. R.G.Qodirov(2005).Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: (6-7).